

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i> MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI: MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI (Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i> IJTIMOİY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i> MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA: O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i> OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i> JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i> RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i> RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i> HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i> СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmuratov Umidjon Temurovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i> JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIK LARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIK LAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY Hujjatlar taxlili	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES

Received: 03 January 2026

Accepted: 17 January 2026

Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

**IMPROVING THE EFFICIENCY OF PURCHASING DRUGS
IN THE MECHANISM OF STATE MEDICAL INSURANCE**

Kasimova Gulyar Axmatovna

DSc, professor of the department "Budget accounting and treasury"
Tashkent State University of Economics

Haydarova Durdona Shuhratjonovna

Independent applicard of Gulistan State University

Abstract. This article highlights the importance of financing the healthcare system based on medical insurance and the need to improve the efficiency of funds allocated to the healthcare sector. The dynamics of expenditures on pharmaceuticals and food products within the structure of state budget expenditures on healthcare were analyzed. Practical proposals and recommendations have been developed to ensure the openness and effectiveness of public procurement based on the use of digital technologies in the state health insurance mechanism.

Keywords: state budget, public procurement, social sphere expenditures, healthcare, medical insurance, budget organization.

**DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON
XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

Kasimova Gulyar Axmatovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Byudjet hisobi va g'aznachilik" kafedrası professori, DSc

E-mail: kasimovagulyora1960@gmail.ru

<http://www.orcid.org/0000-0002-9997-6104>

Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi

Guliston davlat universitetining mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sog'liqni saqlash tizimini tibbiy sug'urta asosida moliyalashtirishning ahamiyati va sog'liqni saqlash sohasiga yo'naltirilgan mablag'larining samaradorligini oshirish zaruriyati ko'rsatilgan. Davlat byudjetining sog'liqni saqlash xarajatlari tarkibida dori vositalari va oziq-ovqat xarajatlarining dinamikasi tahlil qilingan. Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmida raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida dori-darmon xaridining ochiqligi va samaradorligini ta'minlash bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, davlat xaridi, ijtimoiy soha xarajatlari, sog'liqni saqlash sohasi, tibbiy sug'urta, byudjet tashkiloti shartnoma, dorixona, reimbursatsiya, dori-darmon xarajatlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N07>

Kirish. O'zbekiston Respublikasida tibbiy xizmatning ommabopligini oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'lamini kengaytirish, mazkur sohaga bosqichma-bosqich

tibbiy sug'urta tizimini joriy etish, tibbiy xizmatlar bozorida zamonaviy raqobat muhitini yaratish, shu asosda aholining kafolatlangan va sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish borasida salmoqli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4890-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentyabrdagi "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi 311-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-sentyabrdagi "Tibbiyot muassasalarini farmatsevtika mahsulotlari va tibbiy jihozlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 408-son Qarori aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish hamda davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini respublikaning barcha hududlarida joriy qilishga qaratilgan muhim qadamlardir. Biroq sog'liqni saqlash sohasi uchun dori-darmonlarni sotib olishda davlat xaridi tizimida hali ham yechilmagan muhim masalalar, tibbiy xizmatda samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilashdagi aniqlik yetishmasligi, sog'liqni saqlashni moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirishning zamonaviy raqamli iqtisodiyotga to'liq moslashmaganligi kabi muammolar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Davlat byudjetidan sog'liqni saqlashga ajratilgan byudjet mablag'larining samaradorligini oshirish zaruriyati, tibbiy sug'urta asosida aholini ijtimoiy himoyalash va tibbiy xizmatlarning natijadorligini ta'minlash birgalikda iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi.

Tadqiqotchi E.A.Ruseskaya ta'rifiga ko'ra, "majburiy tibbiy sug'urta har bir fuqaroning ijtimoiy-iqtisodiy maqomidan qat'i nazar, ijtimoiy sug'urta shakllaridan biri bo'lib, bunda barcha aholiga bepul tibbiy yordam ko'rsatishda davlat kafolatlarini berilishi uchun mo'ljallangan. Fuqarolarning sog'liqni saqlashga bo'lgan huquqlarini ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi ijtimoiy guruhlarining ijtimoiy-iqtisodiy xulq-atvorining barqaror tizimi va tibbiy xizmat ko'rsatish, dori-darmonlarni iste'mol qilish uchun majburiy tibbiy sug'urta faoliyatini amalga oshirish natijasida davlat bilan ochiq va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish orqali ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni qondirishdir" [10].

P.P.Butkovskiy o'z ilmiy ishlarida majburiy tibbiy sug'urtaga quyidagicha ta'rif beradi. "Davlat tomonidan sug'urtalangan fuqarolarning moddiy yoki ijtimoiy mavqeyini o'zgartirish oqibatlarini kamaytirish maqsadida, qiyin vaziyatlarda ularning sog'lig'ini saqlab qolish uchun davlat tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy choralar tizimidir" [5].

Tadqiqotchi M.N.Umrzoqova tomonidan "tibbiy sug'urtani takomillashtirish muammosi dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlari uchun dolzarbdir, chunki bu sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirishning samarali mexanizmini shakllantirish omili bo'lib, o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ta'sir qiladi" [11] deb xulosa beradi.

M.F.Yodgorov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda majburiy tibbiy sug'urta — sog'liqni saqlash sohasidagi aholi manfaatlarini himoya qilishning davlat tomonidan kafolatlangan tizimi bo'lib, sug'urta hodisalari kasallik yoki jarohatlar shaklida yuzaga keladigan holatlarni davolashga sarflanadigan xarajatlarni qoplash uchun sug'urta mukofoti hisobiga yaratiladi. Tibbiy sug'urtalashning maqsadi sug'urtalanadigan hodisa sodir bo'lgan taqdirda fuqarolarga

jamg'arma mablag'laridan tibbiy yordam olish va profilaktika choralarini moliyalashtirishga kafolat berishdir" [6] deb, ta'kidlab o'tiladi.

Germaniyada tibbiy sug'urta fondlari avtonom tashkilotlar bo'lib, ularga sug'urta badali miqdorini uning bazaviy darajasidan sezilarli darajada yuqoriroq belgilash, tibbiy xizmatlar ko'lamini asosiy dasturdan tashqari kengaytirish, majburiy va ixtiyoriy sug'urta shakllarini tanlash, tibbiy-profilaktik muassasalari bilan hisob-kitoblar shakllarini tanlash huquqlari berilgan. Kasalxonalarda tibbiy xizmatlar va dori-darmonlarga haq to'lash byudjet va klinik-statistik guruhlarining usullari, birlamchi yordam uchun esa tibbiy xizmatlar to'lovi tartibi asosida to'lanadi" [13].

"Bugungi kunda ijtimoiy soha taraqqiyoti dunyo mamlakatlari barqarorligining muhim bo'g'iniga aylanib ulgurdi. Xususan, ko'plab davlatlarda ijtimoiy soha xarajatlari byudjet xarajatlarining salmoqli qismini tashkil qiladi. Ijtimoiy soha, jumladan, respublikamizda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirishni yangi usullarini joriy qilish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, aholi sog'ligi darajasi ko'rsatkichlarini barqarorlashtirish, o'rtacha umr ko'rish davriyligini uzaytirish va boshqa natijalarga bo'lgan me'yorlarni ishlab chiqish ayni kunda dolzarb masalalarga aylandi" [9].

"Jahon iqtisodiyotining ko'plab mamlakatlari tomonidan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish va Birlashgan millatlar tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish muhim omilga aylanmoqda. Sog'liqni saqlash tizimida natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishning ijtimoiy va moliyaviy ko'rsatkichlari, geografik tabiiy-iqlim sharoiti, aholining yoshi va daromadi jihatidan tasniflash, kasalliklarni oldindan aniqlash va tibbiyot muassasalarida dori-darmon bilan ta'minlashni tartibga solish kabi jihatlar dolzarblik kasb etadi" [7].

Sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirishda davlat ishtirokining darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar tibbiy yordamning sezilarli ravishda yaxshilanishiga hamda aholining hayot davomiyligini oshishiga erishdilar. Shular bir vaqtda aholining daromad darajasi, demografik holat va davlat tibbiy sug'urtasi tizimi orqali moliyalashtirilishi inobatga olinib nodavlat tibbiyot tashkilotlarining faoliyati rivojlandi. "Xorijiy mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoyalashda davlat tibbiy sug'urta tizimini tahlil qilish, respublikamizda aholini ijtimoiy himoya qilishda, sog'liqni saqlash sohasida tibbiy sug'urtani rivojlantirish va tibbiy sug'urtani joriy etish muammolarini ilmiy tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega" [11].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, qiyosiy taqqoslash kabi usullaridan foydalanilgan.

Natija va muhokama. Har bir mamlakatda davlat byudjetidan sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish, tibbiy sug'urta tizimini rivojlantirish hamda tibbiyot muassasalarini tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash bilan bog'liq davlat xaridlaridan kutiladigan natijalar kabi davlat xaridlarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari jarayonining tashkiliy-huquqiy bazasi yaratildi, dori-darmonlarning xaridi jarayonlari ochiqlikni ta'minlash va bozor shaffofligiga erishish asosida jahon tajribasi bo'yicha rivojlantiriladi. O'zbekiston Respublikasida original dori vositalari hamda yopiq turdagi laboratoriya uskunasi ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi hamda vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi va muntazam yangilab boriladi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarga bo'lgan ehtiyoj tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri darajasidagi tibbiyot muassasalari, respublika darajasidagi tibbiyot muassasalari, Sog'liqni saqlash vazirligining doimiy faoliyat yurituvchi Hay'ati tomonidan shakllantiriladi. Bunda ehtiyojni hisoblash hududdagi kasallanish ko'rsatkichlari bo'yicha bemorlar soni, bir bemorga talab etiladigan kunlik miqdor, davolash kursining davomiyligi, mavjud zaxira hamda demografik holatni inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika va jihozlar uchun markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan xaridlarni Markaz hamda ishlab chiqaruvchi (rasmiy yetkazib beruvchi) o'rtasida tuziladigan uzoq muddatli (bir yildan ortiq muddatga) shartnoma asosida amalga oshiriladi. BMTning taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda dori vositalari va tibbiy uskunalarni xarid qilish, saqlash, yetkazib berish va bemorlar ta'minoti tizimini tashkil etish hamda ushbu jarayonlarni raqamlashtirish bo'yicha loyiha amalga oshiriladi. Mazkur loyiha doirasida hududlarda dori vositalari va tibbiy uskunalarni saqlash uchun zarur talablar asosida jihozlangan omborlar tashkil etiladi hamda ularni tibbiyot muassasasigacha yetkazib berish uchun haroratni nazorat qilish moslamalari bilan jihozlangan maxsus avtotransport vositalari bilan ta'minlanadi.

1-jadval

Davlat byudjetining sog'liqni saqlash xarajatlari tarkibida dori vositalari va oziq-ovqat xarajatlari [15].

mldr so'm

Ko'rsatkichlar	Yillar					
	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Dori vositalari, tibbiyot buyumlari, vaksina va bakpreparatlar	1446,5	1783,9	2474,0	2785,0	3800,0	1877,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	333,3	593,3	583,8	676,6	958,6	1103,0

Davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari paketi asosida tuman va shahar tibbiyot muassasalarida 10 ta kasallik guruhlar hamda 7 ta xizmat turlari bo'yicha aholiga bepul tibbiy yordam ko'rsatish tashkil etildi. Aholining kafolatlangan paketga kiritilgan tibbiy xizmatlardan bepul foydalanishi oilaviy shifokorga murojaat qilish orqali amalga oshiriladi. Oilaviy shifokor davolash va tashxislash standartlariga muvofiq tor soha shifokorlar va zarur hollarda shifoxonalarga yo'llanmalar beradi. Ambulator davolash uchun dori vositalarini elektron retsept asosida dorixonalar tomonidan bemorlarga bepul berish hamda dorixonalarining xarajatlarini qoplash (reimbursatsiya) tizimi joriy etiladi. Dori vositalarini respublika hududiga kirib kelishidan boshlab ularni bemorgacha yetib borishini shaffof ta'minlaydigan yagona elektron tizim yaratiladi. Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda, dori vositalari va tibbiy buyumlarni markirovkalash (shtrixlash) tizimini yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, birlamchi tibbiyot muassasalari uchun dori vositalari, tibbiy buyumlar va sarflash materiallarini markazlashgan tartibda mahalliy ishlab chiqaruvchilardan sotib olish tizimi yo'lga qo'yiladi" [16]. Davlat byudjeti parametrlarini shakllantirishda tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash uchun zarur mablag'lar 2020-yildan boshlab nazarda tutiladi.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatuvchi tashkilot va unga birlashtirilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etilgan chet el fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar (voyaga yetmaganlar uchun ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari) o'rtasida bitim tuziladi. Bitimda aholiga sog'lom turmush tarziga rioya etish, zararli odatlardan voz kechish, o'z tibbiy savodxonligini oshirish, shifokor ko'rsatmalariga amal qilish, profilaktik va skrining ko'riklardan belgilangan muddatlarda o'tish, oilaviy shifokorga esa aholini belgilangan tartibda qabul qilish va yo'llanma berish, tibbiy xizmatlarni o'z vaqtida, sifatli va to'liq hajmda ko'rsatish, dori-darmon vositalarini to'g'ri tayinlash kabi majburiyatlar yuklatiladi. Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari tasdiqlanadi va ushbu paketga kiritilgan tibbiy xizmatlar va dori vositalari Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi mablag'lari hisobidan taqdim etiladi.

Davlat xaridlari tizimining ochiqligi, shaffofligi va ijtimoiy ijtimoiy jihatlarni hisobga olish orqali iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, soliq tushumlarining oshishi va fuqarolik jamiyati ishtirokining kuchayishi — bularning barchasi davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligini va ijtimoiy ahamiyatini oshiradi. Davlat xaridlarining faqat texnik jihatlari emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy foydalari ham sezilarli darajada oshadi, davlat xaridlari jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

“Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi to'g'risidagi Nizomga muvofiq xarid qilinadigan axborot-kommunikatsiya jihozlari va tarmoq qurilmalarini, istisno tariqasida, loyihaoldi hujjatlar va texnik-iqtisodiy hisobni ishlab chiqmasdan, “Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator – “UZINFOCOM” MCHJ orqali yetkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri tuziladigan shartnomalar asosida ushbu maqsadlar uchun nazarda tutilgan mablag'lar doirasida xarid qilinadi. Mazkur tadbirlarni moliyalashtirish uchun 2024-yilda quyidagi manbalar hisobidan 170 mlrd so'm yo'naltirildi. Jumladan:

Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasidan- 71 mlrd so'm;

Davlat byudjetidan qo'shimcha ajratiladigan mablag'lardan- 50 mlrd so'm;

Sog'liqni saqlash vazirligiga respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lardan- 23 mlrd so'm;

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetidan-11 mlrd so'm;

Toshkent shahri mahalliy byudjetidan- 10 mlrd so'm;

Sirdaryo viloyati mahalliy byudjetidan- 5 mlrd so'm” [3].

“O'zmedimpeks” va “Tibbiyot texnikalariga xizmat ko'rsatish o'quv-ishlab chiqarish markazi” davlat muassasalari negizida Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida davlat muassasasi shaklida “Xaridlar markazi”ni hamda Markazning 13 ta hududiy filialini tashkil etildi va uning quyidagi asosiy vazifalari belgilandi:

“O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi buyurtmasiga ko'ra tibbiyot muassasalarini dori va sarflov vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy uskunalar, reagentlar, reaktivlar, butlovchi qismlar va boshqa asosiy vositalar bilan ta'minlash uchun davlat xaridlarini amalga oshirish;

xarid qilingan tibbiy tovarlarni zarur talablar asosida saqlash hamda tibbiyot muassasalariga yetkazib berish;

yagona elektron tizim orqali tibbiy jihozlar hisobini yuritish, har bir tibbiyot muassasasi kesimida tibbiy jihozlarning samarali ishlatilishi bo'yicha monitoring olib borish;

tibbiyot muassasalariga tibbiy uskuna xarid qilish uchun texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda ko'maklashish;

sog'liqni saqlash tizimidagi tibbiyot muassasalarini tibbiy uskunalar bilan ta'minlash bo'yicha yagona siyosat yuritish, tibbiyot muassasalarini jihozlash bo'yicha minimal talablarni ishlab chiqish, markazlashgan tartibda xarid qilingan tibbiy jihozlarning tibbiyot muassasalarida o'rnatilishini, ularga texnik xizmat ko'rsatilishini tashkil etish hamda soz holatda bo'lishini ta'minlash;

tibbiyot muassasalari uchun xarid qilingan tibbiy texnikalarning kafolat davrida yetkazib beruvchi tomonidan o'z majburiyatlarining shartnoma shartlariga muvofiq to'liq bajarilishini tashkil etish;

shartnoma asosida tibbiyot muassasalariga ulardagi tibbiy uskunalarni ta'mirlash yoki belgilangan tartibda hisobdan chiqarish bo'yicha ekspert xulosasini berish.

"O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartib va ro'yxatga asosan quyidagi dori vositalari va tibbiy buyumlarning davlat xaridini to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida amalga oshirishga ruxsat etiladi: original dori vositalari (ularning ishlab chiqaruvchisi yoki rasmiy yetkazib beruvchisi orqali); yopiq turdagi laboratoriya uskunasi uchun maxsus reagent, reaktiv va sarflav vositalari; shoshilinch va tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur dori vositalari va tibbiy buyumlar. Dori vositalari va tibbiy buyumlarga o'n besh oylik ehtiyoj asosida shakllantirilib, undan omborxonadagi qoldiq miqdorlarni chegirish orqali aniqlanadi"[4].

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlariga oid huquqiy-me'yoriy baza mustahkamlandi, elektron tender platformalari, elektron raqamli imzolar, shartnomalar monitoringi, sun'iy intellekt va blokcheyn asosidagi nazorat mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy qilindi. Bularning barchasi xarid jarayonlarining tezligi, aniqligi, ochiqqligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 27 noyabrda qabul qilingan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi 1005-son Qonuni asosida davlat xaridlarining ochiqqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida raqamli texnologiyalar keng joriy etildi. "2023–2027-yillarda davlat xaridlari tizimini rivojlantirish strategiyasi doirasida elektron tender platformalari, blokcheyn texnologiyasi, sun'iy intellekt asosidagi tahlil modullari va boshqa raqamli texnologiyalari bosqichma-bosqich joriy qilinadi" [1].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar davlat xaridlarining har bir bosqichida – rejalashtirish, e'lon qilish, baholash, monitoring va ichki audit jarayonlarida samarali qo'llanilmoqda. Raqamli iqtisodiyot davlat boshqaruvining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Jumladan, dori-darmon va tibbiy buyumlarni davlat xaridlari jarayonlarining raqamlashtirilishi orqali nafaqat byurokratik tartib-qoidalar soddalashtirilmoqda, balki xarajatlarni tejash, ochiqqlik va shaffoflik darajasi oshirilmoqda va korrupsion xavflar kamaymoqda.

Davlat xaridlarining shaffofligi, samaradorligi va raqamli texnologiyalar yordamida tezligi oshdi. Elektron tender platformalari, raqamli imzo, blokcheyn va sun'iy intellekt

asosidagi tizimlar orqali xaridlar jarayonida korrupsiyaviy xavflar kamaydi, jamoatchilik nazorati kuchaydi. Bu holat davlat xaridlarining ochiq va adolatli o'tishini ta'minlab, mamlakatda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi.

Bizning fikrimizcha, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida sotib olinadigan dori vositalari va tibbiy buyumlarning shoshilinch va tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur miqdorda va hajmda xarid qilinishi bo'yicha mas'uliyat va shaxsiy javobgarlik tibbiyot muassasalari rahbarining zimmasiga yuklash maqsadga muvofiq bo'ladi. Natijada, aholi va tibbiyot muassasalarining sifatli dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika va jihozlar bilan ta'minlanganlik darajasi oshadi. Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi "Xaridlar markazi" va uning 13 ta hududiy filiallari tomonidan ko'rsatiladigan xizmat uchun to'lov miqdori xarid summasining 8 foizigacha miqdorda belgilanishi lozim.

Davlat tibbiy sug'urta tizimida "Xaridlar markazi" davlat muassasasiga xarid qilingan mahsulotlarni saqlash, mahsulotlarni joylarga yetkazib berish hamda tibbiy uskunalarga xizmat ko'rsatish xizmatini outsorsing asosida tashkil etish huquqini berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari ishtirokchilarining shartnoma majburiyatlariga rioya etishini monitoring qilish, tahlil o'tkazish va nazorat qilishning raqamli texnologiyalarga asoslangan kompleks dasturini joriy etish muhimdir. Fikrimizcha, elektron platformada axborotlarni joylashtirish, saralash va ma'lumot olishda qulayliklar yaratish maqsadida maxsus axborot portalining veb-dizaynini va funktsionalligini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Raqamli iqtisodiyot davlat boshqaruvining barcha sohalariga, jumladan sog'liqni saqlash sohasiga ham kirib bormoqda. Jumladan, dori-darmon va tibbiy buyumlarni davlat xaridlari jarayonlarining raqamlashtirilishi orqali nafaqat byurokratik tartib-qoidalar soddalashtirilmoqda, balki xarajatlarni tejash, ochiqlik, natijadorlik va shaffoflik darajasi oshirilmoqda va korrupsion xavflar kamaymoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Давлат харидлари тўғрисида"ги Қонунига давлат харидлари тизимини янада такомиллаштиришга қаратилган қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш ҳақида"ги 1005-сон Қонуни. 2024 йил. 27 ноябрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Давлат харидларида ишлаб чиқарувчиларни қўллаб-қувватлаш ҳамда уларга кенг имкониятлар яратиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги 417-сон Қарори. 2024 йил. 3 декабрь.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Давлат тиббий суғуртаси механизмларини жорий этишга оид чора-тадбирлар тўғрисида"ги 311-сон Қарори. 2024 йил 5 сентябрь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Тиббиёт муассасаларини фармацевтика маҳсулотлари ва тиббий жиҳозлар билан таъминлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлар тўғрисида"ги 408-сон Қарори. 2024 йил. 29 сентябрь.
5. Бутковский П.П. Проблемы правового регулирования обязательного медицинского страхования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук (Специальность 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит). Москва. 2005. -С.25.

6. Ёдгоров М.Ф. Соғлиқни сақлаш соҳасида мажбурий тиббий суғуртанинг ўрни.// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 6. ISSN 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor 2022 йил. №6. -Б.977-983. www.oriens.uz
7. Имонкулов Н.Қ. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизимини молиялаштиришда натижага йўналтирилган бюджетлаштириш истиқболлари. и.ф.б.ф.д. д. автореферати. – Т.: ТДИУ, 2024. –Б. 5.
8. Касимова Г., Хайдарова Д. Тиббий суғурта. Монография. Таҳририй -нашриёт. ТДИУ. 2025. -Б.108.
9. Мелиев А.М. Соғлиқни сақлаш тизимини давлат томонидан молиялаштиришнинг зарурияти. // Яшил иқтисодиёт ва тараққиёт. 2024. №3. -Б. 1022-1026.
10. Русецкая Э.А. Формирование и развитие системы медицинского страхования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. (Специальность 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит). Ставрополь. 2004. -С.27.
11. Умрзакова М.Н. Германияда тиббий тиббий суғурта тизими.// ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2023. №9 (169). -Б.57-61.
12. Болтаев С. Давлат харидларида коррупцион хатарлар ва уларга қарши самарали курашиш усуллари. Молиячи маълумотномаси. // Илмий журнал. Тошкент. 2023. №10. –Б. 2-29. WWW.tcmf.uz
13. Сверхточий Б. Социальное страхование в контексте истории. // Социальная защита. – 2003.№ 3. – С.20-24.
14. Эшназаров С. Давлат бюджет назорати тизимини ривожлантириш йўналишлари.\\ Молия. – Тошкент. 2023. №5. – Б.36-42.
15. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг маълумотлари.
16. Бюджетнома 2024-2026. -Б.69-70.
17. https://api.mf.uz/media/filestore/%D0%91%D1%8E%D0%B4%D0%B6%D0%B5%D1%82%D0%BD%D0%BE%D0%BC%D0%B0_2024-2026_compressed.pdf

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).